

83. Yuz o'lchov birliklari

Yondosh mavzu:
applikatsiya.

O'lchov, kvadrat,
yuz.




$$\begin{array}{lcl} \text{👉} + \text{👈} & = & 6 \\ \text{👉} + \text{👉} & = & 12 \\ \text{👍} + \text{👉} & = & 15 \\ \text{👍} + \text{👈} & = & ? \end{array}$$




1. Tomoni 1 dm bo'lgan kvadrat yasang. Uni tomoni 1 cm bo'lgan kvadratchalarga bo'ling. Nechta shunday kvadratcha hosil bo'ladi?

Odatda, yuz o'lchov birligi sifatida tomonlari 1 cm, 1 dm, 1 m bo'lgan kvadratlardan foydalaniladi.
Kvadrat santimetr – tomoni 1 cm bo'lgan kvadrat.
 1 cm^2 ko'rinishida belgilanadi.
Kvadrat detsimetr – tomoni 1 dm bo'lgan kvadrat.
 1 dm^2 ko'rinishida belgilanadi.
Kvadrat metr – tomoni 1 m bo'lgan kvadrat.
 1 m^2 ko'rinishida belgilanadi.



2. Harflarning yuzlarini kvadrat santimetrlarda o'lchang. Ularni daftaringizga yozing.





3. Ko'rsatilgan o'lchov birliklarida ifodalang.

$$8 \text{ m}^2 = \square \text{ dm}^2$$

$$3 \text{ dm}^2 = \square \text{ cm}^2$$

$$600 \text{ cm}^2 = \square \text{ dm}^2$$

$$700 \text{ cm}^2 = \square \text{ dm}^2$$

$$7 \text{ m}^2 \text{ } 63 \text{ dm}^2 = \square \text{ dm}^2$$

$$5 \text{ dm}^2 \text{ } 17 \text{ cm}^2 = \square \text{ cm}^2$$



4. Amallarni bajaring.

$$454 \text{ cm}^2 + 218 \text{ cm}^2$$

$$920 \text{ dm}^2 - 475 \text{ dm}^2$$

$$325 \text{ m}^2 + 168 \text{ m}^2$$


$$801 \text{ m}^2 - 672 \text{ m}^2$$



5. Dilnozada olmos bilan tikilgan rasm bor. U yelim bilan qoplangan maydonga zarlar yelimlashi kerak. Ishchi qismning yuzi 40 dm^2 . Dilnoza 18 dm^2 ni zar bilan to'ldirib bo'ldi. U yana qancha yuzni to'ldirishi kerak? Dilnoza ishning yarmini bajarib bo'ldim, deb da'vo qilishi mumkinmi?



6. Masalani sxema bo'yicha yeching.



7. Amallarni bajaring.

$$725 \text{ m}^2 + 196 \text{ m}^2$$

$$2 \text{ m}^2 + 65 \text{ dm}^2$$

$$744 \text{ dm}^2 + 108 \text{ dm}^2$$

$$73 \text{ dm}^2 + 8 \text{ m}^2$$

$$528 \text{ cm}^2 - 137 \text{ cm}^2$$

$$6 \text{ dm}^2 - 41 \text{ cm}^2$$



8. Applikatsiya uchun uch bo'lak mato kesib olindi. Birinchi bo'lakning yuzi 136 cm^2 , ikkinchi bo'lakning yuzi birinchi bo'laknikidan 29 cm^2 katta, uchinchi bo'lakning yuzi esa 17 cm^2 kichik. Kesib olingan mato bo'laklarining umumiy yuzi nimaga teng?